



BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QUVCHILARINING AXLOQIY TARBIYASINI RIVOJLANTIRISHDA XALQ OG'ZAKI IJODIDAN FOYDALANISH

Turgunbayeva Tajigul Asilbekovna

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining axloqiy tarbiyasini rivojlantirishda xalq og'zaki ijodidan foydalanish, ulardan bir qancha namunalar hamda tatbiq etilishi va ahamiyati keng bayon qilingan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, o'quvchi, xalq og'zaki ijodi, alla, milliy harakatli o'yinlar.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НАРОДНОГО УСТНОГО ТВОРЧЕСТВА В РАЗВИТИИ НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ ОБРАЗОВАНИЙ

Аннотация. В данной статье подробно описано использование фольклора в развитии нравственного воспитания учащихся младших классов, несколько их примеров, а также их применение и значение.

Ключевые слова: воспитание, обучение, учащиеся, народное творчество, alla, национальные подвижные игры.

USING FOLK ORAL CREATION IN DEVELOPING THE MORAL EDUCATION OF PRIMARY EDUCATION STUDENTS

Abstract. In this article, the use of folklore in the development of moral education of elementary school students, several examples of them, as well as their application and importance are described in detail.

Key words: education, training, pupil, folk oral creativity, alla, national action games.

Kirish. Yoshlarga ta'lim-tarbiya berish har doim ham eng dolzarb muammo sanalib kelingan. Jamiyatning taraqqiyoti insonlarning ongiga, aql-zakovati, axloq-odobiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Yaxshi tarbiya ko'rgan kishi eng avvalo el-yurtning, xalqning manfaatini o'ylaydi. Chunki har bir shaxsning baxt-saodati alohida, o'z holicha amalga oshmaydi. Atrofdagilar baxtli va farovon turmush kechirganlarida huzur-halovat hammaga tatiydi. Bu qoida qadim zamonlardan mavjud bo'lib, unga turli davrlarda turlicha amal qilib kelingan. Insoniyat boshidan kechirgan turli jamiyatlarda mafkura, g'oya, siyosiy va ijtimoiy qonun-qoidalar bir-biridan farq qilgan.

Adabiyotlar tahlili. Ta’lim va tarbiya ishlari ijtimoiy buyurtma sifatida mavjud jamiyatning ehtiyojini qondirish uchun xizmat qilgan. Shu asnoda xilma-xil ta’lim-tarbiya tizimlari tarkib topgan. Yangicha qarashlar, ta’minotlar, nazariya va amaliy tajriba namunalari paydo bo‘lgan. Hali insoniyat yozish-o‘qishni bilmagan paytlarda yoshlarga ta’lim-tarbiya berish haqidagi qarashlar xalq og‘zaki ijodi namunalari aks etgan. Uzoq davrlar tajribada sinalib, sayqallanib borgan. Kuchli tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish darajasiga etgan. Yozish-o‘qish paydo bo‘lgandan keyin ham xalq og‘zaki ijodi o‘z mavqeini yo‘qotmagan, aksincha, yozma adabiyotlar mazmuniga singgan holda ta’sirchanligi yanada ortib borgan. Insonlar qadimdan atrof muhitda ro‘y berayotgan voqea xodisalarga o‘z munosabatini bildirgan. [1].

Bu munosabat, avvalo, turli xatti xarakatlar, ovozlari, ehtiroslar vositasida amalga oshgan. Keyinchalik insonlar to‘da bo‘lib dostonlar, laparlar, ayta boshlagan. So‘ngra bu ijod namunalari to‘planib xalq og‘zaki ijodiga aylandi. Xalq og‘zaki ijodi bu xalqning o‘mishidan darak beruvchi omil hisoblanadi. Mana ko‘rib turipmizki uzoq o‘tmishdan hozirgi kungacha xalq og‘zaki ijodining qator janrlari yaratildi va hozirgi kunda xalq og‘zaki ijodi, adabiyot, san’at davlat maqomi darajasiga ko‘tarildi. [2]. Xalq og‘zaki ijodida xalqning hayoti do‘stlik aloqalari, mehnatsevarlik, ezgulik va yovuzlik, vatanparvarlik kabi qator xususiyatlar atroflicha yoritiladi. Xalq og‘zaki ijodi sirasiga maqollar, topishmoqlar, alla, doston, lapar, ertak, tez aytish, kabi adabiy janrlarni o‘z ichiga oladi.

Tahlil va natijalar. Xalq og‘zaki ijodi boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarini do‘stona munosabatda tarbiyalash, ulardagi og‘zaki nutq madaniyatini rivojlantirish, o‘quvchilarni yoshligidan kitob savodxonligiga o‘rgatish, ularni xotirasini mustahkamlash va shu qatorda vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kabi qator vazifalarni bajarishda pedagoglarga asosiy ko‘makchi vazifasini bajaradi. biz bu dunyoni ko‘z ochib ko‘rgan kunimizdanoq onajonimizning “Alla” larini eshitib katta bo‘lamiz. [3].

Mana birgina misol xalq og‘zaki ijodi sirasiga kiruvchi birgina alladaham onajonimizning bir qancha mehrli so‘zlari, qator orzu niyatlari bo‘ladi. bu esa yosh go‘dakning ongiga albatta o‘z ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Maqollar o‘quvchilarni ezgulik, do‘stlik, vatanparvarlik, elparvarlik kabi qator ijobiy xususiyatlar bilan kamol toptirishdagi eng kerakli omil hisoblanadi. Maqollarni e’tibor tortar tomoni shundaki maqoldagi so‘zlar ba’zida qofiyadosh, ba’zida esa zid ma’noli bo‘lishidir. Aynan mana shu narsa yosh xarakatchan, qiziquvchan bolalarni o‘ziga maftun qiladi. Bolalarni o‘zbek xalq moqollari bilan tanishtirish, ularni yosh avlodga yod oldirish, kelajak avlodni yuksak ma’naviyatli etib tarbiyalash har bir pedagogning oldida turgan burchi va vazifalari deb hisoblayman. Masallarda asosan bosh ro‘llar har hil buyumlar va hayvonlar tomonidan so‘zlanadi. Ertak xalq ichida “Ertaklar yaxshilikka yetaklar” degan ibora ishlatilmaydi. Ertak bu insoniyat qalbiga ezgulik nurini olib kirguvchi, o‘quvchilar ongiga ijobiy ta’sir o‘tkazuvchi ijod namunasi hisoblanadi. Ertaklarda yovuzlik ustidan ezgulikni g‘alaba qozonishi, baxillikning oqibatlari, sotqinlar, tuhmatkashu xoyinlarning oxir nihoyasi haqida so‘z yuritiladi. Ertaklar boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarini kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini uyg‘otadi.

Hozirgi qiziquvchan o‘quvchilarni ko‘proq rasmlari, ya‘ni ertakda bo‘layotgan voqea hodisalar rasmlar orqalinamoyon etilishi o‘quvchilarni yanada o‘ziga jalb qiladi. O‘quvchilar ertaklardan do‘stlik tushunchalarini kengroq o‘zlashtiradi, ertak qahramonlari kabi or nomusli, vatanni himoya qiluvchi o‘g‘lon bolib yetishishga oshiqishadi. Shunday ertaklar borki yillar o‘tsa ham o‘z qadr qimmatini yo‘qotmaydi, aksincha yosh avlod tomonidan sevib o‘qiladi, yangicha talqin qilinadi. Mana shunday ertaklardan “Zumrad va qimmat”, “Sholg‘om”, “Bo‘g‘irsoq” kabi xalqning ko‘nglidan joy olgan, sevib o‘qilgan, yillar davomida o‘z qiymatini yo‘qotmagan ertaklarni misol tariqasida keltirish mumkin.[4].

Dostonlar xalq og‘zaki poetik ijodidagi qadim epik an‘ana qastlab qo‘shiq shaklidagi, musiqa asbobisiz kuylanadigan asarlar yaratilgan. Keyinchalik do‘mbira jo‘rligida aytiladiganlari yuzaga kelgan. O‘zbek xalq dostonlari ichida eng mashhurlari “Kuntug‘mush”, “Ravshan”, “Rustam”, “Alpomish” dostonlari hisoblanadi. Bu dostonlarda vatanga muhabbat, mardlik, chin sevgi, vafodorlik, dushmanlarga nisbatan g‘azab, do‘stlik kabi oliyjanob g‘oyalar tarannum etiladi. So‘ngra yillar davomida dostonchilik san‘ati rivojlana boshlandi. Asrlar davomida kuylangan bu dostonlar ortidan baxshichilik san‘ati rivoj topdi. Baxshichilik san‘ati orol bo‘yi mintaqalari, qashqadaryo, surxandaryo vohalarida keng tarqalgan hisoblaniladi. Hozirgi kunda ham baxshichilik san‘atini dunyoga tanitish, xalq dostonlarini tarannum etuvchi kuylarni yosh avlod shururida namoyom etish kabi ezgu ishlarni amalga oshorish uchun yurtimizda qator sayi harakatlar olib borilmoqda.

Xalq og‘zaki ijodiyotining eng qadim turlaridan bo‘lgan baxshichilik san‘ati yuksak gumanizm g‘oyalarini tinchlik va do‘stlik, adolat va haqiqat kabi ezgu fazilatlarini tarannum etadi. Shu bois ham baxshi, oqin va jirovlar azaldan xalq qalbining kuychilari, turli millat va elatlarni birlashtiradigan oliyjanob insonlar sifatida ardoqlab kelinadi. Darhaqiqat yaqin bir necha yil davomida yurtimizda milliy o‘zlikni anglash, qadriyatlarimizni yuksalishi yuzasidan qator madaniy ma‘rifiy tadbirlar o‘tkazilmoqda.[5].

Bunday tadbirlarni o‘tkazishdan asosiy maqsad yo‘qolib borayotgan qadriyatlarimizni qayta tiklash, milliy o‘zligimizni butun jahonga andoza sifatida ko‘rsatishdir. O‘zbek xalqining tili millatimizning qadriyatlari, ma‘rifati, madaniyati, ko‘hna o‘tmishdan beri o‘z qadr qimmatini yo‘qotmagan, va hali hanuz g‘arb mamlakatlarini e‘tiboriga sazovor bo‘lib kelmoqda. Mustaqillik umuman xalq qadriyatlariga, xususan, xalq og‘zaki ijodiga bo‘lgan munosabatda keskin ijobiy o‘zgarish yasadi. Birinchi prezidentimiz islom abdug‘aniyevich karimovning “O‘zbekiston buyuk kelajak sari” asaridagi mustaqil o‘zbekistonni rivojlantirishning ma‘naviy axloqiy negizlari deb atalgan bo‘limida; o‘zbekistonni yangilash va rivojlantirishning yo‘li 4 ta asosiy negizga asoslanadi, - deyiladi. Bu negizlar;

Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;

Xalqimizning ma‘naviy me‘rosini mustahkamlash va rivojlantirish;

Insonni o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish;

Vatanparvarlik -deb belgilab qo‘yilgan.

Yuqorida qayd etilgan to‘rt negizning har biri yo bevosita, yo bivosita xalq og‘zaki ijodi, ajdodlarimizning bizga qoldirgan ma‘naviy boyligi, pand o‘g‘itlari, el yurt qadrini e‘zozlash, millatning g‘ururini himoya qilishdek oliy tuyg‘ular bilan bog‘lanadi. Haqiqattan ham, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, avvalo, milliy qadriyatlarga sadoqat mezonini bilan o‘lchanadi. Zero o‘z qadrini bilmagan farzand o‘zganing qadriga yetmaydi. Xalqimiz og‘zaki ijodidagi asarlarda esa aynan shu g‘oya o‘z ifodasini topgan. Xulosa qilib aytganda o‘quvchilarni ma‘nan yetuk, fikrlash ko‘lami keng, elparvar, yurtiga, urf odatlariga, o‘zligiga nisbatan g‘urur tuyish kabi xislatlar bilan shakllantirish har bir pedogogning vatani, millati, ajdodlari tomonidan qo‘yilgan maqsad, burch va vazifalaridan deb hisoblayman. Zero har bir pedogog o‘z ish faoliyatida yurtining ertasini, farovon kelajagini ta‘minlab beradi.

Bolalarni tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodi muhim o‘rin tutadi. Uni janrlarga bo‘lish ma‘lum yoshda bolaning ma‘naviy dunyosini boyitish, vatanparvarlik, o‘z xalqining o‘tmishiga hurmat, uning an‘analarini o‘rganish, jamiyatda axloqiy-tarbiya, xulq-atvor me‘yorlarini o‘zlashtirishga imkon beradi. Xalq og‘zaki ijodi bolaning og‘zaki nutqini rivojlantiradi, uning ma‘naviy rivojlanishiga, tasavvuriga ta‘sir qiladi.

Bolalar folklorining har bir janri muayyan axloqiy me‘yorlarni o‘rgatadi. Maqol va matallar bolalarga asrlar davomida sinovdan o‘tgan va bizning davrimizda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan xalq donoligini o‘rgatadi. Topishmoqlar kichik yoshdagi o‘quvchilarga mantiqiy fikrlashni, tasavvurni rivojlantirishga yordam beradi. Tez aytishlar o‘quvchilarga nutq nuqsonlarini bartaraf etish, og‘zaki nutqni rivojlantirish, mantiqiy to‘g‘ri gaplar qurish imkonini beradi.

Xulosa. Xalq og‘zaki ijodining kichik shakllari yordamida nutqni rivojlantirish metodikasining deyarli barcha muammolarini hal qilish mumkin va bu xalq og‘zaki ijodining eng boy materialidan foydalanish kerak. Shunday qilib, bolani xalq madaniyati bilan tanishtirish bolalikdan boshlanishi kerak, degan xulosaga kelishimiz mumkin, chunki asosiy tushunchalar va xulq-atvor namunalari o‘sha paytda qo‘yiladi. Madaniy meros avloddan-avlodga o‘tib, bola dunyosini rivojlantiradi va boyitadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus kasb – hunar ta‘limining davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-sonli qarori hujjatlari. 2017-yil
2. Pedagogika. O‘. Asqarova va boshqalar. 7-bob. “Fan”, 2004-yil
3. Xalq ta‘limi jurnali . 55-bet. 2018-yil. 3-son
4. Akramova F.A. Bola shaxsi shakllanishiga boshlang‘ich. Ta‘lim o‘qituvchisining psixologik ta‘siri. zamonaviy ta‘lim / sovremennoe obrazovanie 2015, 3
5. ”Kreativ pedagogika asoslari” moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. Toshkent-2016